

THE ROLE OF NON-GOVERNMENTAL, NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Qodirova Mamlakat, Mominovna

Karshi State University, Department of History of Uzbekistan,

Candidate of History, Associate Professor

Abstract

This article provides information about the mission, purpose, features, and capabilities of non-governmental non-commercial organizations. Opinions were expressed about the role of these organizations in the development of society.

Key words: non-governmental non-commercial organizations, legal entities, state, law, action strategy, civil society.

Nodavlat notijorat tashkiloti- jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlanmaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi. Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar ajratib beradi. Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, fuqarolarning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirish sohasida ijtimoiy, xayriya, madaniy-ma'rifiy, siyosiy, ilmiy va boshqaruv maqsadlariga erishish uchun tuzilishi mumkin. Fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, nizo va nizolarni hal etish, yuridik yordam ko'rsatish, shuningdek, jamoat manfaatlariga erishishga qaratilgan boshqa maqsadlarda ham tuziladi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari milliy qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlash uchun yordam beradi. 2017-2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan. Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari demokratik huquqiy davlat barpo etish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash

hamda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy salohiyatini oshirish yo`lida muhim ahamiyat kasb etmoqda .

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokchi va hamkor sifatida nodavlat notijorat tashkilotlarning rolini yanada oshirish ,ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyasini mustahkamlash ,davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash ko`lamini kengaytirish hamda ularga qulay shart- sharoitlar yaratish maqsadida bir qancha ishlar qilinmoqda .Bugungi kunda 10000mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari “ Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” ,degan ezgu g`oyani ro`yobga chiqarish,jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini,demokratik qadriyatlarni himoya qilish,ijtimoiy ,madaniy va ma`rifiy islohotlarni hayotga tatbiq etishga o`z hissasini qo`shmoqda.Prezidentimizning 2021 –yil 3 –martda qabul qilingan “ Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash ,ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta`minlashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida “gi qarori bu jabhada amalga oshirilayotgan ishlar ko`lamini yanada kengaytirish ,fuqarolik jamiyati institutlarining maqomi va mavqeyini yuksaltirishda yana bir muhim qadam bo`ldi.NNTga chet ellik shaxslardan pul mablag`lari va mol-mulk olinishini kelishish tartibi keyingi paytda ekspertlar tomonidan tanqidga uchrayotgan bu yo`nalishdagi ishlarni ham zamon talabidan kelib chiqib tashkil etishga turtki bo`ldi. Endilikda NNTlar tomonidan ro`yxatdan o`tkazuvchi organi xabardor qilgan holda xorijiy manbalardan olinadigan pul mablag`lari va mol-mulkning bir kalendar yilidagi jami summasi bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan yuz baravarigacha oshirilishi belgilanmoqda.Bu jamoat tashkilotlari ish faoliyatida ortiqcha ovoragarchilikning oldini olish,erkin faoliyat yuritish imkoniyatini kengaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarining salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.Bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi organlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi belgilangan bo`lsa-da ,amaliyotda bu tajribadan deyarli foydalanmayapti.Shu bois,O`zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlarini qo`llab –quvvatlash jamoat fondiga mahalliy NNTlarni rivojlantirishga qaratilgan dastur va loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat subsidiyasini ajratib borish vazifasi belgilandi.Bu yangilik esa kambag`allikni qisqartirish ,yangi ish o`rinlarini tashkil etish kabi ijtimoiy foydali loyihalarni manzilli ijtimoiy buyurtma berish orqali moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish imkonini beradi ,NNT larning jamiyat rivoji uchun salmoqli ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi.

O`zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirishga qaratilgan keng qamrovli choralar amalga oshirilmoqda. Natijada bugungi kunda NNT soni salkam 16 foizga ko`payib,9 ming 800tadan oshgan bo`lsa ,mahallalar soni qariyb 10mingtaga yetdi.Siyosiy ,ijtimoiy,iqtisodiy,ekologik,madaniy va ma`rifiy maqsadlarga erishish,shuningdek,Barqaror taraqqiyot sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish borasida davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari o`rtasidagi ijtimoiy sheriklik darajasi tubdan yangi bosqichga

ko`tarildi. Mamlakatimizning 11ta mintaqasida "Do`stlik va NNT uyi" tashkil etilgan bo`lsa, yana 3ta mintaqada shunday uylar ochilish arafasida turibdi. Qolaversa, 15ta "kovorking markazi" ish boshladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari tizimida doimiy asosda ishlaydigan xodimlar soni 52 ming nafar kishidan oshdi. Keyingi davrda NNT ayniqsa, "Xalq –qonunlarning yagona manbayi va muallifidir" hamda "Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida va jamoatchilik fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi" degan prinsiplarni hayotga tatbiq etishda sezilarli faollik ko`rsatayotgani ko`zga tashlanmoqda.

Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan Konstitutsiyaviy komissiya boshchiligidagi konstitutsiyaviy islohotlarga oid 100dan ortiq milliy va xalqaro forumlar o`tkazildi. Birinchi marotaba 200 tadan ziyod milliy NNT Konstitutsiyaviy qonun loyihasini jamoatchilik, gender, bola huquqlari, inson huquqlari himoyasi va aksilkorupsiya ekspertizalaridan o`tkazish jarayonlarida faol ishtirok etdi. Xulosa qilib aytganda, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokchi va hamkor sifatida nodavlat notijorat tashkilotlarning rolini yanada oshirish, ularni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash ko`lamini kengaytirish hamda jamiyatdagi o`rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizda inson qadr-qimmati, huquqlari, manfaatlar muhofazasi yuqori o`rinda ekanligining isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. NNT to`g`risidagi qonun. Toshkent: 1999-yil 14-aprel.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlar va jamiyat. O`zbekiston-geneva.
3. NNTni tugatishning fuqarolik huquqiy muammolari. Jo`rayeva Z.G`. 2012.
4. Rafikovna, I. Z. (2022). FORMATION OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 1349-1352.
5. Rafikovna, I. Z. (2022). RAW MATERIALS OF SEWING MATERIALS: FIBER TYPES. Open Access Repository, 9(11), 180-181.
6. Rafikovna, I. Z., & Inomjonovich, M. R. (2022). FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE TECHNOLOGY, FOLK CRAFT SKILLS IN TECHNOLOGY COURSES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 798-802.
7. Rafikovna, I. Z., Toshpolatovich, B., & Inomjonovich, M. R. (2022). THEORETICAL BASIS OF PREPARING FUTURE IT TECHNOLOGY TEACHERS FOR INNOVATIVE ACTIVITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(11), 803-812.
8. Rafiqovna, I. Z., Ganiyevich, D. T., & Qizi, A. M. A. (2022). TECHNOLOGICAL EDUCATION AND PROFESSIONAL CHOICE PLANNING. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(03), 82-92.
9. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. IEJRD.

10. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. Open Access Repository, 9(11), 106-113.
11. Sobirovna, U. M. (2022). USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS. Open Access Repository, 9(11), 114-119.
12. Jo'rayevich, X. A. (2022). REGARDING THE STUDY OF CRYSTAL STRUCTURES OF SUBSTANCES. Open Access Repository, 9(11), 93-100.
13. Jo'rayevich, X. A. (2022). RESEARCH OF ELECTRICAL AND PHOTOELECTRIC PHENOMENA IN STRUCTURES BASED ON SILICON CONTACT WITH MANGANESE INTERLAYER WITH HIGH MANGANESE SILICIDE FILM. Open Access Repository, 9(11), 101-105.
14. Tojiyevich, R. X., Juraevich, X. A., & Toshpo'latovich, Y. O. (2022). Theoretical Justification Of The Dimensions Of The Working Part Of The Combined Aggregate Cutting Grinder. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3663-3667.
15. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). INTERPRETATION OF SMART TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY LESSONS. Open Access Repository, 9(11), 23-31.
16. Souma, T., Ohtaki, M., Zhang, Y., Bian, Z., Shakouri, A., Terasaki, I., ... & Dadamuhamedov, S. (2005). Tom. 2005. Proceedings-ICT'05: 24th International Conference on Thermoelectrics.-Cep. Proceedings-ICT'05: 24th International Conference on Thermoelectrics. Evaluation, 387, 390.
17. Tojiyevich, R. X., & Jo'raevich, X. A. (2022). Combination lashgan Aggregatlarda Zanzhirli Uzatmaning Ishlash Muddatini Aniglash. Czech Journal of Multidisciplinary Innovations, 5, 28-30.